



6-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDA BERILGAN MATNLAR TAHLILI

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya
va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

Do'stmatova Sevinch Shavxiddin qizi
e-mail: dusmatovasevinch@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-sinf “Ona tili” darsligida berilgan matnlar tahlili haqida ma'lumot berildi. Tahlil davomida matnlarning mazmun va grammatik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Darslikda berilgan matnlar bo'yicha o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar ko'rsatildi.

Kalit so'zlar. Audio matn, tinglab tushunish, o'qib tushunish, savol va topshiriqlar, nutq so'zlash kompetensiyasi, yozma nutq, grammatik topshiriqlar.

Hozirgi kunda amaldagi 6-sinf “Ona tili” darsligi 2022-yildan buyon maktab o'quvchilariga o'rgatilib kelinmoqda. Darslik Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dulla Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova va Mansur Siddiqovlar tomonidan tuzilgan.

6-sinf “Ona tili” darsligida “Til-muloqot vositasi”, “Qisqacha tarjimayi holim”, “Shifoxona”, “Global isish”, “Qayta ishlanadigan chiqindilar”, “Koz nurini asraylik”, “Jigar-eng mehnatkash a'zo”, “Dehqon yurtni boqadi”, “Kompyuter grafikasi”, “Teleboshlovchi bolib qolsam”, “Import yoki eksport?”, “Soliqlarni to'lab borasizmi”, “Raqamlashgan dunyo”, “Mendeleyev elementlari”, “Yongin xavfsizligi qoidalari”, “Hadislar hikmati”, “Sayyohlarga gidlik qilsam-chi?”, “Peshtoqdagi bitiklar”, “Minorayi kalon”, “Buyuk ipak yo'li”, “Miniatyura-mo'jaz”, “Oqsaroyga bitilgan hikmat”, “Konstitutsiya bosh qomusimiz”, “Davlatni kim boshqaradi?”, “O'z deputatingizni bilasizmi?”, “O'quv yili oxirida takrorlash” mavzulari doirasida matnlar va o'quv topshiriqlari berilgan bolib, darslik tubdan takomillashtirilgan. Ushbu mavzular doirasida bir nechta kichik matnlar hamda matn mazmuniga mos rangli rasmlar berilgan va o'quvchini ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini oshirish, mantiqiy tafakkurini ostirish, ona tili orqali shaxsiy xususiyatlarini, o'zidagi iqtidorni anglash nazarda tutilgan. Shuning uchun ham bu avlod darsligida grammatik mavzular ancha soddalashtirilgan. Til va nutqni farqlash; esse, maqola, maruza yozish boyicha ko'nikma hosil qilish; matn sarlavhasi va undagi sozlarning izohini organish; mustaqil soz turkumlari hamda tinish



belgilarining qo‘llanishiga oid mavzular boyicha o‘quv topshiriqlar orqali nazariy malumotga yo‘naltirilgan.

Darslikda har bir mavzuga berilgan matnlar yuzasidan audio matnlar, nutq so‘zlash kompetensiyasini rivojlantirish hamda o‘qib tushunish bo‘yicha topshiriqlar berilgan bo‘lib, ular o‘quvchini ko‘proq fikrlashga undaydi. Xususan, darslikda “Teleboshlovchi bo‘lib qolsam” mavzusi doirasida berilgan matn va u yuzasidan topshiriqlarga to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu mavzu doirasidagi matn, savol va topshiriqlar 4 soatga mo‘ljallangan. Unda o‘qib tushunishga doir matnlar 5 tani tashkil etadi. Ushbu matnlarning 4tasi kichik hajmdagi matnlar bo‘lib, ularni o‘qigan o‘quvchida tushuncha hosil bo‘lishi mumkin. Ammo “Teleboshlovchi kim” matni hajm jihatidan boshqa matnlarga nisbatan katta va buni o‘quvchilarga o‘qitishda o‘qituvchilardan mahorat talab etiladi. Negaki, mavzuni tushuntirishda berilgan matnni qismlarga bo‘lib o‘rgatish bu foyda beradi deb hisoblaymiz.

Matn mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu matn o‘quvchilarga ma’lumotlar matni bo‘lib xizmat qiladi. Matnni o‘rgatishda ushbu matn yuzasidan kichik testlar tuzish o‘quvchilarning diqqatini tortish va darsga qiziqtirishga yordam beradi. Berilgan mavzu doirasida audio matn ishlab chiqilishi yanada samarali deb hisoblaymiz va bu yuzasidan o‘qituvchining o‘zi usullardan foydalanishni mumkin.

Masalan: Test uchun namuna

1. Teleboshlovchi kasbi qachondan boshlab paydo bo‘la boshlagan?
 - a) XIX asrning 60-yillari
 - b) XX asrning 40-yillari
 - c) 1960-yil
 - d) 1860-yil
2. Telekanallar paydo bo‘lgan vaqtlarda efir vaqti necha soat edi?
 - a) bir kunda 3 soat
 - b) bir kunda 2 soat
 - c) kuniga 1 soat
 - d) kuniga 4 soat
3. Qaysi kasb egasi tayyor matnni o‘qib beradi?
 - a) Suxandon
 - b) Teleboshlovchi
 - c) Qo‘shiqchi
 - d) Artist



Berilgan namunaviy testlar orqali biz o'quvchini darsga qiziqtirish va diqqatini jalb etishga erishamiz deb hisoblaymiz. 6-simf "Ona tili" darsligini o'qitishda o'qituvchilardan mahorat va malaka talab qilinadi. Negaki, ushbu darslik takomillashtirilgan darslik hisoblanib, darslik o'quvchini fikrlashga, nutqini to'g'ri va ravon so'zlashiga ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, darslikda berilgan matnlar ham mazmun ham grammatik jihatdan o'quvchilarning bilimlarini oshiradi. Turli mavzularda berilgan matnlar ularning dunyoqarashini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi 2 Mashq daftari [Matn]: 2-sinfi uchun mashq daftari / I. Azimova, K. Mavlonova, Sh. Tursunov, S. Quronov.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi.- 80 b.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. I. Azimova, K. Mavlonova, Sh. Tursunov, S. Quronov.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022.